

UDK: 632.937

BUG'DOYDA UCHRAYDIGAN KUZGI TUNLAMGA QARSHI KURASHDA QO'LLANILGAN KIMYOVIY PREPARATLARNING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Nurumova Nilufar Kamilovna

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti Xorazm filiali kichik ilmiy
xodimi, nilufar050290@gmail.com

Annotation. *This article is about the protection of wheat plants from pests against autumn rust in the conditions of Khorezm region, the use of agrotechnical, biological and chemical methods harmful to the environment and human health, as well as Karate Zeon in the fight against autumn rust. and Urell-D 55% is to study the effectiveness of using chemical preparations.*

Key words: *Agrotis segetum, larva, butterfly, urell-D, karate zeon, insecticide, wheat agratsenosis.*

Kirish. G'allachilik mamlakatimiz qishloq xo'jaligining eng yetakchi tarmog'i bo'lib, bug'doy donidan asosiy kundalik iste'mol maxsulotlari tayyorlanadi. Dunyo olimlari tomonidan boshqoli don ekinlariga 300 turdan ortiq zararkunanda hasharotlar zarar keltirishi aniqlanib, shundan 30 turdan ko'prog'i xavfli zararkunanda sifatida qayd qilingan. Bu guruh zararkunandalar har yili 15-20% gacha, iqlim ularning rivojlanib ko'payishi uchun qulay kelgan ayrim yillari esa 45-50% gacha hosilni yo'qotish bilan birga yetishtirilayotgan donning sifati yomonlashuviga va natijada bunday donning oziq-ovqat sanoati uchun mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolishiga olib keladi.

Keyingi yillarda g'alla ekinlarida so'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalardan zararli xasva, g'alla shiralari, tripslar, shilliq qurt, kuzgi tunlam va undov tunlamlari respublikamizning sug'oriladigan g'alla maydonlariga, ayrimlari esa (kuzgi va undov tunlamlari) takroriy ekilgan sabzavot va kartoshka maydonlariga ham tarqalib,

yetishtirilayotgan hosilning sifat va miqdoriga sezilarli darajada ziyon yetkazayotganligi kuzatilmoqda [1].

Kuzgi tunlam - (*Agrotis segetum* Den. et Sshiff) sug'orib dehqonchilik qilinadigan hududlarda keng tarqalgan zararkunandalardan biridir. Ushbu zararkunandaning qurtlari 34 oilaga mansub yuzlab ekinlarga zarar yetkazadi. G'o'za, beda, qand lavlagi, makkajo'xori, g'alla, moyli o'simliklar hamda sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari, shuningdek, pechak, yovvoyi tojixo'roz, sho'ra, olabo'ta kuzgi tunlamning eng xo'sh ko'rgan ozuqasi hisoblanadi. Kuzgi tunlam qurtlari unib chiqayotgan yosh ekinlarni ildiz bo'g'zini shikastlab, urug' pallalarini teshadi. Shu bilan birga ildizlarni yoki ildiz bo'g'zi yaqinidagi poyalarini kemiradi, ba'zan maysalarning yer ustki qismiga ham zarar yetkazadi [4.].

Tadqiqotlar Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi "USPITI Xorazm ITS tajriba xo'jaligi"da, Xonqa tumanidagi "Madrin tolibjon" fermer xo'jaligidagi g'alla maydonlarida olib borildi. Sinovdagi dorilarning biologik samarasi ekin nixollarining shikastlanishi xamda daladagi qurtlar zichligi bilan belgilanadi. Buning uchun dalada nihol paydo bo'lgach (birinchi 2 ta usul uchun), 3, 7, va 14 kunlari nazorat o'tkazildi. SHuningdek, nixollarga dori purkash usuli qo'llanilganda bu boradagi ish dori sepilishdan 1 kun oldin va undan keyin xuddi yuqorida qayd etilgan muddatlarda nazorat qilinadi [4, 5, 6.].

Nazorat har bir bo'linmada (takrorda) 10 tadan namuna hisoblash yo'li bilan bajarildi. Namuna ekin nixollari chizig'idan 25 sm kenglikda va 1 m uzunlikda bo'lib, 0,25 m² ni tashkil etadi. Bo'lakchani nazorat qilganda qurtlarning aniqlangan umumiy soni (yoshi belgilanib) hamda nixollarning shikastlangan umumiy soni belgilanadi. Bunday tajribalarda mumkin qadar begona o'tlar bo'lmasligi kerak. Begona o'tlar mavjud bulganda ularning shikastlanishi va ostida qurt bor yo'qligi tekshiriladi. Tekshirishda har bir bo'lakcha ildiz chuqurligida kavlab ko'riladi. Biologik samaradorlikni hisoblash uchun tajribada nazoratdagiga nisbatan qurt sonining kamayishi hamda shikastlangan o'simliklar o'rtasidagi farq asos bo'lib xizmat qiladi. Pestitsidlarni sinash Sh.T.Xo'jaevning (2004 y) asosida olib borildi. Insektitsidning biologik samaradorligi Abbot formula bo'yicha hisoblandi [2, 3, 5, 6.].

Olingan natijalar tahlili. Kimyoviy preparatlarni tunlamlarga qarshi sinash ekin maydonlarida zararkunandalarning paydo bo'lishi bilan olib boriladi. Tajriba natijalari quyidagi jadvalga kiritiladi (1-jadval).

1-jadval

Kuzgi tunlamga qarshi kimyoviy preparatlarni qo'llashning biologik samaradorligi

№	Variantlar	Istemol darajasi kg/ga, l/ga	1 m ² dagi umumiy qurt soni, kunlar boyicha, dona				Biologik samaradorlik kunlarda % da		
			Ishlovda n oldin	Ishlovdan keyingi kunlarda					
				3	7	14	3	7	14
1	Nazorat varianti	-	3.2	4.3	5.2	6.5			
2	Karate Zeon	1.0	3.0	1,32	0,43	0,74	56	85.6	75.3
3	Urell-D 55%	1.0	3.4	0,83	0,39	0,75	75.5	88.5	78

Bug'doy dalalaridagi olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 1-variant nazorat varyanti bo'lib, ushbu varyantda preparatlar qo'llanilmadi va ishlovdan oldin 3,2 ta zararkunandalar bo'lib, 1, 2 va 3 variantlarga ishlov berilgandan 3 kundan keyin 4,3 taga, 7-kundan keyin 5.2 taga va 14-kundan keyin esa 6.5 taga oshgan. 2-variantda ishlovdan oldin 3,0 dona zararkunandalar bo'lib, Karate Zeon preparatini 1 l/ga qo'llaganda 3 kundan keyin 0,74 dona yoki 56 % ga, 7 kundan keyin 0,43 dona yoki 85,6 % ga, 14 kundan keyin 0,74 dona yoki 75,3 % ga kamaygan. 3-variantda ishlovdan oldin 3,4 dona zararkunandalar bo'lib, Urell-D 55% em.k. preparatini 1 l/ga qo'llaganda 3 kundan keyin 0,83 dona yoki 75,5 % ga, 7 kundan keyin 0,39 dona yoki 88,5 % ga, 14 kundan keyin 0,75 dona yoki 78 % ga kamaygan. Natijada bug'doy dalalaridagi kuzgi tunlamlarga qarshi kimyoviy kurashda biologik samaradorlik yuqori ta'sir qilib, 7 kundan keyin Karate Zeon preparati qo'llangan variantda -85.6% , Urell-D em.k.- 88.5% ni tashkil qildi.

Kuzgi tunlamlarga qarshi Urell-D 55% preparati qo'llanilganda eng yuqori biologik samaradorlik – 88,6% natija kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda g'alla agratsenozlarida uchraydigan kuzgi tunlam zararkunanda turlarga qarshi kurash choralari o'rganilib, kurash choralari avzalliklari va kamchiliklari taqqoslandi va ular ichidan samarali kurash chorasi deb uyg'unlashgan kurash chorasi tanlandi. Kuzgi tunlam zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurash chorasi yuzasidan Urell-D preparatini qo'llash orqali - 88,5 %, Karate zeon preparatini qo'llash orqali esa -85,6 % yuqori natijalarga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пўлатов З ва бошқалар. “Ғалла экинларини зараркунанда, касаллик ва бегона ўтлардан ҳимоя қилишда пестицидларни маъдан ўғитли суспензияга қўшиб ишлатиш”. Т. ТошДАУ. Таҳририят - нашриёт бўлими. 2014 й. - Б.3.

2. Хўжаев Ш.Т. ва б. Инсектицид, акарацид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (II-нчи нашр). – Тошкент, 2004. – 104б.

3. Худойқулов, А.М., Аблазова М.М., Давронов Ж.У. Ғалла ва такрорий экилган картошкада илдиз кемирувчи зараркунандаларга қарши инсектицидларни самарадорлиги// Academic Research In Educational Sciences Volume 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00207.

4. Dilshod Obidzhanov Adventive type – Potato moth and methods of fighting it. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering Published Date: August 30, 2022 | Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume04Issue08-03>. P. 10-15.

5. D.Obidjanov Bakiyeva M. The Prospect of Protecting Tomatoes From Rust. // Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences ISSN NO: 2771-8840 ISSN NO: 2771-8840 <https://zienjournals.com>. Date of Publication: 30-09-2023.

6. Обиджанов Д.А., Матниёзов Б. Борьба против картофельной моли на картофеле. «Фитосанитарная безопасность: угрозы и пути решения» Международной научно- практической конференции, посвященной 65-летию основания института, 14-15 декабря 2023 г., г. Алматы, Республика Казахстан. info@niizkr.kz С. 122-124.

7. Abbot W.S. A method of computing the effectiveness of an insecticide//J.Econ. Entomol. – 1925. V.18. – №3. – P.200-265.